

## CHET TILLARIDA MA`RUZA MASHG`ULOTLARINI SAMARALI TASHKILLASH

**Yusufjonova Shahlo Mukhtorovna f.f.f.d. (PhD),**

**Farg`ona davlat universiteti, katta o`qituvchi**

**Olimov Murodjon Xoshimjon o`gli**

**Farg`ona davlat universiteti magistranti**

***Annotatsiya:** Maqolada oily ta`limda ta`limni tashkil etishning asosiy shakllari taxlil qilingan. Unda ma`ruza mashg`ulotlarining turlari va ularning xususiyatlari ochib berilgan.*

***Kalit so`zlar:** ma`ruza, aralash, umumlashtirish, tizimlashtirish, fakultativ, telekonferensiya.*

***Аннотация:** В статье анализируются основные формы организации обучения в высшем учебном заведении. Так же описаны виды лекций и их особенности.*

***Ключевые слова:** лекция, смешанные, обобщение, структуризация, факультатив, телеконференция.*

***Abstract:** The article analyzes the main forms of educational organization in family education. It describes the types of lectures and their features.*

***Key words:** lecture, mixed, generalization, systematization, facultative, teleconference.*

Bugungi kunda jamiyatimiz hayotining barcha jabhalari qatori, ta`lim va fan sohalari ham rivojlanmoqda. Bu rivojlanish esa soha mutaxassilari oldiga bir qancha vazifalarni qo`ymoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta`kidlaganlaridek: “Hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta`lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o`qituvchilarning eng muhim vazifasi - yosh avlodga puxta ta`lim berish, ularni jismoniy va ma`naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir”.

Ta`limni tashkil etishning asosiy shakli oliy ta`limda ma`ruza hisoblanadi. Biror bir ta`limni tashkil etish shakli o`quv ishlari masalasi va usullariga qarab

tuzilishini va modifikatsiyasini o'zgartirishi mumkin. Misol uchun, dars - o'yin, dars – konferentsiya, dialog, amaliyot va muammoli ma'ruza, binar, ma'ruza – telekonferentsiya va boshqalar. Oliy ta'limda darslar bilan birga boshqa tashkiliy shakllar ham qo'llaniladi (laboratoriya praktikum, mustaqil uy ishi, fakultativ, to'garak). Ma'lum nazorat shakllari ham mavjud bo'lib ular: og'zaki va yozma imtihonlar, nazorat va mustaqil ishlar, nazorat, test topshirish, suhbat o'tkazish shular jumlasidandir. Oliy ta'limda ma'ruzadan tashqari o'qitishning boshqa tashkiliy shakllaridan ham foydalaniladi – seminar, laboratoriya ishi, amaliy mashg'ulot talabalarning mustaqil ishi, ishlab chiqarish amaliyoti, boshqa o'quv yurtida yoki chet el o'quv yurtida stajirovkada bo'lish va shu kabilar. Ta'limning natijalarini baholash va nazorat qilish shakli sifatida imtihonlar, nazoratlar, baholash reyting tizimidan, referat, kurs ishlari va diplom ishidan foydalaniladi.

“O'quv mashg'ulotlarida ta'lim texnologiyasini loyihalashtirish va rejalashtirish” nomli o'quv qo'llanmada berilishicha: “**Ma'ruza** – o'qitishni tashkil etishning yetakchi shakli bo'lib, quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

**Yo'naltiruvchanlik** – talabalarning diqqati o'quv materialining asosiy qoidalari, uni o'rganishdagi hamda bo'lg'usi kasbiy faoliyatidagi roli va ahamiyati, uni o'zlashtirish metodlariga jalb qilinadi.

**Metodologiklik** – ma'ruza vaktida o'qish usullari takkoslanash, tadqiqot metodlarini qiyoslash, chog'ishtirishga, ilmiy izlanishning tamoyillari va yondashuvlarini aniqlashga yordam beradi.

**Tarbiyalovchilik** – ma'ruza jarayonida o'quv materialiga hissiy baho berish munosabatlarini o'yg'otish, qiziqishlarini o'stirish, mantiqiy fikrlash va isbotlashni oydinlashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

**Axborotlilik** – o'qituvchi tomonidan asosiy ilmiy faktlar, qoidalar, xulosalarning mohiyatini ochish chog'ida amalga oshiriladi.

**Rivojlantiruvchanlik** – bilim olish kizikishlarini, ya'ni mantiqiy fikrlash va isbotlash kobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi”.

Shuni ta'kidlash kerakki, ma'ruza qilish auditoriya ro'parasida shunchaki turib, o'zi bilgan hamma narsani aytib berish emas. Ma'ruza bu muloqotning maxsus

shakli bo'lib, unda ovoz, ishoralar, xatti-harakatlar, yuzdagi ifoda, ko'z qarashlari asosiy ma'lumotni to'ldiruvchi zaruriy elementlar sanaladi.

Ma'lumki, ma'ruza mashg'ulotlari barcha nazariy ahamiyatga molik fanlarning ajralmas qismi bo'lib, asosiy ma'lumot beruvchi manba sifatida muhim o'rin tutadi. Ushbu mashg'ulotlar ma'ruzachidan chuqur bilim va yuqori mushohadani, izlanishni talab qiladi. Ma'ruza mashg'ulotlari, shuningdek, o'qituvchilardan yetkazib berish mahoratini ham talab qiladi. Bunda ma'ruzachining nafaqat ilmiy salohiyati, balki yuksak pedagogik mahorati aks etadi. Shuning uchun bugungi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ma'ruza mashg'ulotlarini tashkil etish katta ahamiyatga ega. Bunda interaktiv usullar ma'ruzachi uchun bir qancha qulayliklar yaratadi, shuningdek, talabalarning mashg'ulotga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Bilim berishning eng qadimgi shakllaridan biri bo'lgan ma'ruza o'quv muassalarida hozir ham keng tarqalgan o'qitish usuli hisoblanadi. O'qitishning bunday shaklida o'qituvchi yangi bilimlarni tizimli ravishda beradi va fanga oid murakkab muammolarni tushuntiradi.

O'qitishning interfaol usullari ke'g targ'ib qilinayotgan zamonaviy ta'lim tizimida ma'ruza mashg'ulotlari tanqid ostiga olinmoqda. G'arbda bunday ta'lim usuliga nisbatan tanqidiy munosabat bundan 200 yil oldin Samuel Jonson tomonidan bildirilgan: "Ma'ruzalar qachonlardir foydali bo'lgan, lekin hozir hamma o'qishni bilgan va kitoblar shuncha ko'p bo'lgan bir davrda ma'ruzalar ahamiyatsizdir" deydi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim menedjeri Heppner ham shunga o'xshash fikr beradi: "Ma'ruza odamlarga faktlarni yetkazib berishning sayoz yo'li bo'lib qoldi, mutolaa yoki internet ancha samaraliroqdir".

Bugungi kunda faqatgina ma'ruzaga asoslangan an'anaviy darslar vaqti o'tdi. Axborot oqimi sur'ati tezlashgan bir paytda o'tilayotgan har bir dars rang-barang bo'lmasa, o'quvchi e'tiborini bilimga jalb etish mushkul. Buning uchun o'qituvchi tinmay izlanishi, ijodkor bo'lmog'i darkor. Bunday xolda, ayniqsa darsni o'yinlar asosida ko'rish tizimiga asoslanib o'tish sezilarli samara beradi. O'yinlar esa o'quvchi psixologiyasidan kelib chiqib, tanlangani ma'qul. Birinchi bo'lishga undash uslubi doimo o'zini oqlaydi. Chunki bolalar xamisha o'zini ko'rsatgisi,

tengdoshlaridan bir qadam oldinda yurgisi keladi. Darslarda ham yangi ma'lumotlarni yetkazishdan avval o'qituvchi ularning dastlab olgan bilimlarini, tasavvurlarini aniqlashtiradi, bir tizimga soladi, olingan bilimlar har xil ko'rgazmali vositalar, slydlar, multimediya, tarqatma materiallar, qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaxkamlansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Darsda olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining asosiy elementlaridan biri, o'quvchilarning o'zaro faollik asosida mustaqil, erkin fikrlash o'quv va amaliy topshiriqlarini bajarishlari, xayotda albatta yetuklikka yetaklaydi. Darslarda foydalaniladigan har qanday interfaol usullar ta'lim xarakteriga ega bo'lib, o'quvchilar bilimining mustaxkamlanishiga, aniqlashtirilishi va kengayishiga, ularni umumlashtirishga va tizimga solishga yordam beradi. O'quvchilar bir-birlaridan o'zaro muxokoma asosida o'rganadilar. Darslarning interfaol usullari orqali tashkil etilishi, o'quv-chilarning o'zlashtirish samaradorligini oshiradi. Ta'lim sifatini oshirishda amalga oshirilayotgan ishlar xaqida gap ketganda, ta'lim berish jarayonini ezgulik ko'prigiga o'xshatamiz, bu ko'prikdan o'quvchilarimizni bilimli, dunyoqarashi keng qilib olib o'tish ustozni, ya'ni o'qituvchilarni vazifasi deb bilamiz. Darslarning nazariy va amaliy qismida o'quvchilarning qiziqishini oshirish uchun pedagogik texnologiyaning samarali usullaridan foydalanib, kichik guruxlarga bo'lingan xolda olib boriladi. Mashg'ulotlarni olib borish jarayonini kuzatib borish va kerakli maslaxatlar berish kichik guruxlarda darslarni samarali o'tilishiga yordam beradi. Dars mazmunini tarixiy manbalar bilan boyitish maqsadida "Tarixsiz kelajak yo'q" deganlaridek har bir fan, har bir mavzu o'ziga yarasha tarixga ega. Ularning tarixi bilan tanishtirish orqali o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini orttirib boriladi. O'z kasbini ustasi bo'lgan axborot-kommunikasion texnologiyalari sohasining yetuk mutaxassislari bilan uchrashuvlar tashkil etish, ular xaqida o'quvchilarga so'zlab, savollarga xayotiy misollar keltirish bilan javob beriladi. Buning uchun faqat o'qish, o'rganish kerakligi xaqida maslaxat beradi. Bunday malakali mutaxassislar bilan uchrashuvlar, baxs-muno-zaralar tashkil etish ham o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ш.Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент, 2016. 56 б.
2. Амирсаидова Ш.М. Мутахассислик фанлари бўйича маъруза машғулотлари ташкил этиш. Power Point тақдимоти. <http://reja.tdpu.uz>
3. Л.Мухторова, М.Мирзаев, М.Норбошева. Ўқув машғулотларида таълим технологиясини лойиҳалаштириш ва режалаштириш. Термиз, 2013. – 44 б.
4. Abdurazzakov Yusufjon Usmailovich. FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI TIL VA MULOQOTDAGI O‘RNI. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) 2023.- 340 -343 b.
5. Abdurazzakov Yusufjon Usmailovich. TILSHUNOSLIKDA MULOQOT VOSITASI. **JOURNAL OF LANGUAGE AND LIGUISTICS**. 2023.- 6 -10 b.
6. Abdurazzoqov Yusufjon Usmoilovich. (2023). SOTSIOLINGVISTIKA VA LINGVOSOTSILOGIYA. Innovative development in educational activities, 2(9), 32–36. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7937864>
7. Abdurazzakov Yusufjon Usmailovich. SOTSIOLINGVISTIKA VA LINGVISTIK TADQIQOT METODLARI. *Международный современный научно-практический журнал* Научный Фокус. 2023.- 112 -117 b.
8. Abdurazzoqov Yusufjon Usmoilovich. (2023). SOTSIOLINGVISTIKANING TILSHUNOSLIKKA OID FAN SIFATIDAGI ZARURIYATI. Innovative Development in Educational Activities, 2(9), 28–31. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7937802>
9. Yusufjonova Shakhlo Mukhtorovna. TARJIMADA FRAZEOLOGIK
10. IBORALARNING MILLIY XUSUSIYATI VA ULARNING BADIY
11. ASARLARDAGI TASVIRIY IFODASI. CURRENT APPROACHES AND NEW RESEARCH IN MODERN SCIENCES, 2(2), 112–116. (2023)
12. Yusufjonova Shakhlo Mukhtorovna. ФРАЗЕМАЛАРНИНГ ТАРЖИМА УСУЛЛАРИ ВА УЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА МИЛЛИЙ-

МАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРНИНГ ИФОДАЛАНИШ ЖИҲАТЛАРИ.  
SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM.2(2), 168–  
172. ,(2023).

13. Юсуфжонова Шахло Мухторовна. НЕМИС ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДАГИ  
ТУРҒУН БИРИКМАЛАРНИНГ ТАРЖИМА ҚИЛИНИШ ТАРАҚҚИЁТИ.  
CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION, 2(2),  
43–48., (2023).
14. Шахло Мухторовна Юсуфжонова. Миллий ва маданий хусусиятлар  
доирасида немис ва ўзбек тилларидаги фразеологик бирликларнинг  
тавсифланиши. "Science and Education" Scientific Journal. Volume 4 Issue 2.  
1714-1715. February 2023 /.
15. Yusufjonova Shakhlo Mukhtorovna. Development of Translation of  
Phraseological Units in German and Uzbek Languages. Vital Annex:  
International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. Volume: 02  
Issue: 02 / 2023.
16. Yusufjonova Shakhlo Mukhtorovna, THE NATIONAL CHARACTER OF  
PHRASEOLOGICAL EXPRESSIONS IN TRANSLATION AND THEIR  
REFLECTION IN WORKS OF ART. International Journal of Education, Social  
Science & Humanities. Volume-11/ Issue-2/ 2023.